

CHET TILLARNI O'QITISHDA ZAMONAVIY METODLAR VA PEDAGOGIC
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Yunusova Barno Tulkunovna

Toshkent shahridagi Prezident maktabi o'qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada chet tillarini o'qitishda yangidan-yangi ta'lim metodlarini qo'llash masalasi ko'rib chiqiladi va tahlil qilinadi.*

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan boshlab uning xorijiy mamlakatlar bilan bo'lgan aloqalari yanada yuksalib ketdi. Chet ellar bilan har jabhada amalga oshirilayotgan bunday aloqalar o'z navbatida xorijiy tillarni mukammal biluvchi, yuqori malakali mutaxassis kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini kuchaytirmoqda.

So'nggi yillarda ta'lim tizimida xorijiy tillarga bo'lgan ehtiyoj zamon talabidan kelib chiqqan holda, jadallik bilan o'sib bormoqda. Qaysi bir jabhada olamaylik, ingliz tili jahon maydonida birinchilardan bo'lib taraqqiyot etib, dunyoga yuz tutmoqda. Hozirgi vaqtda nafaqat xorij tiliga o'qitish bo'yicha barcha fanlarga o'qitishni, o'rgatishni yangidan-yangi metodlarini izlab topish va uni amalda sinab ko'rish to'g'risida ko'p ishlar qilinyapti. Bu hozirgi kunda ta'lim-tarbiya jarayonini yaxshilash uchun hal qilinishi kerak bo'lgan eng muhim muammolardan biridir.

Ta'lim samaradorligini oshirish uchun chet tili o'qituvchisi o'z faoliyati davomida yangi pedagogik texnologiyalarning turli usullaridan foydalanib, ularni izchillik bilan yangilash borishi va yordamchi o'quv vositalari (ko'rgazmali qurollar, turli rasmlar, tarqatma materiallar, o'qitishning texnik vositalari) ni har doim takomillashtirib bormog'i lozim. Ana shunday tashkil etilgan dars jarayonida talabalarning chet tiliga bo'lgan qiziqishlari ortib, ularning mustaqil ijodiy ishlash malaka va ko'nikmalari takomillashib boradi. Natijada talabalarda nutqida muloqotga kirishish rivojlanib, ularda nutq madaniyatini oshirish imkoniyati paydo bo'ladi[1].

Agar avval xorijiy tilni o'qitish shu til sistemasini o'rganish deb qaralgan bo'lsa, keyingi yillarda yillarda o'qitishdagi muhim ko'zlangan maqsad, o'quvchilarni xorijiy nutqini o'stirishdan iborat bo'ldi. Shuni aytish kerakki, xorijiy tillarni o'rganishdagi bu maqsadlar, o'z-o'zidan yoki biror kimsalar, shaxs tomonidan qo'yilmadi, balki, lingvistika va psixologiya fanidagi o'zgarishlar va ijtimoiy jamiyatning rivojlanib borishi bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi. Bunga misol tariqasida Audiolingvol metodini olib ko'raylik. Bu metodning yuzaga kelishiga lingvistika fanidagi o'zgarishlar, ya'ni struktural oqimni ta'siri bo'ldi.

U quyidagi printsiplarga asoslanadi:

- chet tiliga o'rgatish avval og'zaki nutqqa o'rgatishdan boshlanmog'i zarurligi;
- til o'rganish turli strukturalar, nutq namunalari asosida asosida amalga oshirilishi;
- mashqlar ham shunga asoslangan holda, til materiallarini ko'p marta takrorlashni talab qiluvchi mashqlar bo'lishi;
- leksikani tanlash xorij tili bilan ona tilini qiyoslashning natijalariga bog'liq bo'lishi;
- talaffuzga katta e'tibor berilishi va h.k.

Yuqorida qayd etib o'tgan metodning asosiy kamchiligi, mexnanik mashqlarning ko'pligini va haqiqiy nutq mashqlarining kamligidir. Bu metodning asoschilari mashhur amerikalik metodist olimlar Ch. Friz va R. Ladolardir. Ularning izlanishlarining o'rganib chiqib, tadqiqotlariga alohida e'tibor qaratdik.

Masalan: Ch. Friz, boshlang'ich etapning asosiy mazmunini strukturalar (modellar)ni o'rganishini tashkil qilish kerak, hamda grammatikani shu yo'l bilan o'rganish, buning asosini tashkil qiladi deb hisoblagan. Ch. Friz bilan R. Ladoning fikricha o'quvchilar avval og'zaki nutqda ishlatiluvchi strukturalarning (gaplarning) yig'indisini o'rganishi va eslab qolishlari kerak. Keyinchalik, shu strukturalar asosida yangidan yangidan-yangi gaplar tuzishi ya'ni malaka va ko'nikmalar hosil qilinishi kerak bo'ladi. Bular maxsus fonetik mashqlar mashqlar yordamida amalga oshiriladi[2].

1950-yilga kelib g'arbda yangi bir metod shakllandim. Bu "audio-vizual" metod edi. Uning asoschilari yugoslaviyalik metodist Petr Guberin va fransuz metodistlari Per Rivon, J. Gugeneym va boshqalar. Bu metod tilni (til materiallarini) eshitish va ko'rish sezgilari orqali eslab qolishga asoslangan. Bu metodning asosiy xususiyati shundaki, u o'rganayotgan til materiallarini hayotiy voqealar bilan bog'lab o'rganishni taqozo etadi. Til o'rganish asosan tematik printsiplarga asoslangan. Bu metod mualliflarining fikricha, o'quvchilar kundalik turmushda uchrab turadigan, eng ko'p ishlatiladigan mavzularni (kvartira, uy va h.k.) o'rganishlari kerak. Bu mavzularning hammasi asosan ko'rib qabul qilish sezgilariga asoslangan bo'lishi, ya'ni diafilmlarni keng ishlatish asosida bo'lmog'i zarur[3].

So'nggi yillarda xorijiy tillarni o'qitishni intensivlashtirish masalasi bo'yicha bizning mamlakatimizda va ellarda ancha ishlar qilinmoqda. Bular yangi intensiv metodlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Xo'sh, intensiv metod o'zi nima? Uni qanday tushunish mumkin? Intensiv o'qitish degan so'zning birligi ma'nosi bu qisqa vaqt ichida o'quvchilar o'rganayotgan xorij tilida nutq faoliyatini amalga oshirishga, ya'ni gapirishga o'rgatish tushuniladi. Bu asosan o'quvchilarning ichki psixologik imkoniyatlariga tayangan holda amalga oshiriladi.

Shuningdek, intensiv metod (yoki intensiv) o'qitishning quyidagi ikki xarakterli xususiyatini ko'rsatish mumkin:

- qisqa vaqt ichida ma'lum o'quv materiali asosida xorijiy nutq faoliyatini amalga oshirish;
- shaxsning barcha psixologik darajada foydalanish ya'ni, o'quvchilarning faolligini oshirish lozim.

Yuqoridagi misollarning ikkinchi auditoriyada psixologik "mikroklimat" ni hosil qilishga qaratilgan. Bunday mikroklimat o'quvchilar aktivligini oshirish shartlaridan biri hisoblanadi. Taniqli metodistlaridan biri E.I.Passovning aytishicha, hozirgi vaqtdagi xorijiy tilni o'qitishda amalda qo'llanilayotgan kommunikativ yondashish intensiv o'qitishning bir ko'rinishidir.

Intensiv metod dastlab XX asrning boshlarida "to'g'ri" metod asosida shakllana boshladi. Professor N.I. Gezning aytishicha, "to'g'ri metod xorijiy intensiv o'qitishga o'tish uchun qulay imkoniyat, asos yaratib berdi". Chunki, to'g'ri metodning ba'zi bir printsiplial tomonlarni ko'rishimiz mumkin[4]:

- og'zaki nutqqa bo'lgan qiziqish(ayniqsa, dialogik nutqq);
- situatsiyalar tanlash;

- o'quvchilarning darsdagi faolligini oshirish kabi hozirgi zamonaviy intensiv metodlarning u yoki bunisiga asos qilib olish. Bu tabiiy albatta, chunki, har bir yangi metod o'zidan oldin o'tgan metodning yaxshi tomonlarini saqlab qoladi.

So'nggi yillarda audiolingual, audiovizual, gipnopediya, releksopediya, suggestopediya, ritmopediya kabi yangi bir yo'nalishni bildiruvchi so'zlar tez-tez metodik adabiyotlarda uchratish mumkin. Shuni aytilish kerakki, bu nomi tilga olingan metodlardan audiolingual va audiovizual metodlar intensiv o'qitish amaliyotida qo'llana olmaydi. Reloksopediya bu metodlar faqat til materialini eslab qolishda yaxshi natijalar beradi, lekin, nutqda qo'llashni ta'minlay olmaydi. Shuning uchun ham taniqli olim, professor L. Sh. Gegechkori gipnopediya bilan releksopediyani xorijiy tilni o'qitishda ishlatilishi mumkin bo'lgan amallardan biri deb qarashni taklif qiladi. Chunki, ular berilayotgan ma'lumotni eslab qolishga qaratilgan metodlardir.

Keyingi yillarda shaxsni ob'ekt sifatida o'rganish va uning barcha ijodiy imkoniyatlarini aniqlashdan pedagogika, psixologiya, ijtimoiy psixologiya, tibbiyot fanlaridagi izlanishlarni birlashtirishga katta e'tibor berilmoqda.

Hozirgi vaqtdagi muhim masala o'quvchilarni yangicha, ijodiy fikrlashga va ularni hayotga tayyorlashga katta e'tibor berilmoqda. Bu esa shaxsni har tomonlama o'rganishga bo'lgan talabni kuchaytiradi. Shunday qilib, o'quvchi shaxsi o'quv protsessorning markaziy, asosiy figurasiga aylanib qoldi.

Bolgariyalik psixoterapevt olim G. Lozanov insonning ichki imkoniyatlarini o'rganishga qaratdi. U tadqiqotlari davomida uchta muhim omilni o'rganadi. Jumladan:

- xotiraning imkoniyatlarini ochish;
- o'quvchi shaxsining intellektual faolligini o'rganish;
- ijobiy emotsiya va boshqa.

Olimlardan Gegechkori L. Sh. va Leontev A. A. e'tirof qilishlaricha, Lozanov metodi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ko'p sonli nutq birliklarini o'rganish;
- o'quvchilarning xorijiy nutq jarayonida til zahirasi, lug'at boyligini ishlatishni, o'rganilgan nutq birligini boshqa bir jarayonda qo'llash malakalarini hosil qilish;
- o'qish va o'rganishda yuqori qiziqishni hosil qilish;
- mavjud psixologik to'siqlar (uyatchanlikni, qo'rqinchni, odamovichilik) ni olib tashlashda juda yaxshi natijalar beradi, deb hisoblangan.

Lozanov metodikasi xorijiy tillarni o'rganishda qo'llashga xarakat qilib ko'rildi. Hozirgi vaqtda mamlakatimiz olimlari va metodistlari intensiv metodikani "ongli-amaliy" metod bilan mujassamlashtirgan holda, qo'llash yo'llarini ishlab chiqishdi. Bu metodning faqat ayrim printsiplari va amallarini qo'llash maqsadga muvofiq.

Bu metoddagi asosiy vosita- kommunikativ vazifalar hisoblanadi va bu metod asosida o'qitish uch davrga bo'lib o'qitiladi.

Birinchidan, grammatika va mustaqil vazifani cheklab o'tgan holda, hayotda eng ko'p uchraydigan holatlar asosida gapirishga o'rganish. Agar o'rganish holati shunday olib borilsa, davr oxiriga kelib 1400-1600 leksik birlikni o'z ichiga olgan o'quv matnlarini o'qish mumkin.

Ikkinchidan, tanlangan sohaga doir nutqiy jarayonga o'tishda og'zaki nutqni keng rivojlantirish. Bosqichma-bosqich tarjima asarlaridan ko'chirma olish va grammatikani

o'rganishga o'tiladi. Shuningdek, ilmiy-siyosiy xarakterga ega bo'lgan matolardan foydalanib, kasbga taalluqli muammoli jarayonlardan tashkil topgan turli o'yinlar asosida xorijiy tillarni o'rgatish mumkin.

Uchinchidan, nutq bosqichma-bosqich ma'lum kasb bo'yicha shakllantirib boriladi. Maxsus matnlar, ishga taalluqli hujjatlar, kasb bo'yicha xat yozishuvlar o'quv materialini tashkil qiladi.

Demak, inson chet tilini o'zlashtirishining psixologik o'ziga xos qirralariga imkon qadar e'tiborli bo'lishi shaxslararo munosabatda, ta'lim-tarbiya jarayonlarida o'zining ijobiy samarasini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. М.Бегматов. Чет тили таълимида янги педагогик ва информацион технологияларнинг ўрни ва аҳамияти. Тошкент.2008.
2. Арметов В. Психология обучения иностранного языку. М.2009.
3. Елухина Н. Преодоления основных трудностей понимания иноязычной речи на слух как условие формирования способности устного общаться . Москва. 2008.
4. Зимняя И. Психологические аспекты обучения говорению на иностранном языке. Москва. 2009.